

Gurung

Jabbor O'SAROV:

Fan-texnika taraqqiyoti asosida ham pedagogika yotadi

— Xalqimizda ustoz otangdan ulug', uning umri shogirdlarida davom etadi, degan hikmatli gaplar bor. Shu jihatdan ustoz va shogirdlar o'rtasidagi an'anaviy munosabatlari, sizningcha, qanday davom etmoqda? Bugun "ustozlik" va "shogirdlik" tushunchasi o'zgar-ganmi?

— Ustoz — millatimiz qadriyatlari, an'analari va amaliy ko'nikmalari davomiyligini, hayotiyligini ta'minlovchi bosh mezon hisoblanadi. Lekin bu an'ana bugungi kunda biroz o'zgacharoq ko'rinish oldi. Yoshlar qiziqqan yo'naliishlari soni juda katta(cheksiz) bo'lganligi bois o'rgatuvchilar soni ham, tabiiyki, mos holda ortib boradi. Bu bir qator muammolarni keltirib chiqaradi:

- ◆ bugungi ijtimoiy talablar bitiruvchilardan kasbiy moslashuvchanlikni talabqilmoqda. Ya'ni, har qanday kasbiy faoliyatdagi zamonaviy yondashuv yoki taraqqiyashib borayotgan vositalardan samarali foydalana oladigan moslashuvchan kadrlarga ehtiyoj mavjud;

- ◆ o'rganish jarayonining aksariyati ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi va bu olingen bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni monitoring qilish, shartli tarzda baholash imkoniyatlari bilan bog'liq;

- ◆ hozir o'qituvchi funksiyasi ham o'zgargan. Bugungi kun o'qituvchisi bolalarini o'qitmadi, ya'ni ularni yetaklamaydi, balki ularga yo'naliish beradi. Bu ayni paytda ta'limga oluvchidan ham faqatgina bilimga ega bo'lishni emas, oлgan bilimlarini hayotiy faoliyatida qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishni ham talab qiladi.

Bugungi "ustozlik" va "shogirdlik" tushunchasiga kelsak, tushuncha o'zgarmagan, lekin uning mohiyatida tafovutlar mavjud. Deyarli barcha muassasalarda bu qog'ozlarda chiroyli rasmiylashtirilgan bo'lsa-da, amaliy jihatdan ilm tolibining o'zidagi ehtiyoj asosida shakllangan munosabat muhim hisoblanadi. Shuningdek, shu o'rinda "ustozlik" va "shogirdlik" munosabatlardan pedagogik ta'limga klasteri subyektlari(bola, oila, ta'limga muassasasi, mahalla, hokimlik)ning manfaatlari hamkorligi va ta'limga jarayonining raqamlashib borayotganligi ham muhim omil ekanligini alohida ta'kidlash joizi.

Iste'dodli yoshlarni tanlashning qaysi usulini ma-qbul deb bilasiz?

— Bu borada ham an'anaviy va qaysidir ma'noda pedagogik, didaktik tushunchalar, qarashlarni nazaridan chetda qoldirib bo'lmaydi. Iste'dodli yoshlarni tanlashning ma-qbul usuli sifatida o'zim ishlaydigan Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasi misolida fikrashsak.

Oliy ta'limga muassasalari talabalarning pedagogik-psixologik portretini, ya'ni ularning iqtidori, kerak bo'lsa, genetik jihatdan metodist bo'lishga, nazariy ma'lumotlar bilan ishlashga yoki boshqa ta'limga xizmatlari bilan shug'ullanishga moyilligini aniqlash asosida ularni kela-jak faoliyatga maqsadli yo'naltirish mumkin. Bunda mos yo'naliishlarga uyg'unlashgan intensiv dasturlar ishlab chiqiladi va o'tkazilgan diagnostika natijalariga ko'ra, mavjud moyilliklarni rivojlanirish nisbatan kam mehnat talab qiladi. Shu zaylda iqtidori talabalarni aniqlash va ularni individual yo'naltirish muhiti yaratiladi. Bu muhit maktabgacha, umumiyo o'rtta, professional, oliy ta'limga ishlab chiqarish integratsiyasidagi mavjud muammolarning ilmiy yechimlariga yo'naltiradi.

Talabani dastlabki o'quv faoliyatini yillardanoq kasbiy faoliyatga amalii yo'naltirish ularning yashirin iqtidorini namoyon qilishlariga sharoit yaratadi.

Shogirdlaringiz, umuman, hozirgi yoshlarning qaysi xislatlarni ko'proq qadrlaysiz?

— Bugungi yoshlar haqida gapirganda, aksariyat hollarda ularning kitob o'qimayotganligi, hayotga yengil munosabati, qiyinchiliklarsiz yaxshi yashash istagi ustuvorligi haqida fikrlari aytildi. Menga bilim olishdan qochmaydigan, qiyinchiliklardan qo'rqlaydigan, aniq maqsad qo'ya oladigan yoshlar bilan ishlash yoqadi. Bilimli inson birovning dilini og'ritmaydi, o'zgalar mehnatinini qadrlaydi. O'zgalar zahmatining qadriga yetmayaptimi, demak

u mehnat qilishni ham xohlama ydi. Shogirdlardagi men-ga qadrli bo'lgan xislat mantiqiy fikrlashdir. Bu ularning ilmiga kirishiga, kasbiy faoliyatidagi samaradorligi hamda jamiyatdagi o'rnini topishida bosh mezon hisoblanadi.

Hozir ayrim yoshlar ilm uchun emas, ilmiy daraja uchun ko'proq qayg'urayotgandek.

— Bu savolni bugungi kundagi ilmiy jamoatchilikning og'riqli nuqtasi, deyish mumkin. Chunki ushbu masala yuzasidan turlicha salbiy munosabatlari ham mavjud. Avvalo, bunga qanday yondashish muhim. Masalan, simyog'ochning zinadagi soyasiga qarasangiz uning soyasi siniq(egri) chiziqlardan iborat bo'ladi. Kimladir soyaning asliga qarashni istamaydi. Bu bilan hozirgi yoshlarning hammasi ilm uchun qayg'urmayapti, degan fikrni bermoqchi emasiz. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" degan naql bor. Shunday holatlar qandaydir lavozim zarurati tufayli ham kuzatilishi mumkin.

Ayniqsa, so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda pedagogika sohasiga bildirilayotgan munosabatlarning bar-chasiga ham qo'shilib bo'lmaydi. "Pedagogika fan emas" deguvchilar ham topildi. Umumta'limga maktablar, OTMlardagi barcha fanlarni o'qitish yoki biror hunar berishning o'z metodikasi mavjud, hatto oddiygina ko'ringan choy ichishning ham. Bugungi fan-texnikaning mislsiz taraqqiyoti asosida ham pedagogika yotadi. Demak, bilimning hosisasi ilm bo'ladigan bo'lsa, pedagogikani ularning boshlang'ich funksiyasi sifatida baholashimiz mumkin.

Men rahbarlik qilayotgan fakultet misolida oladigan bo'lsak, 4 ta yo'naliish bo'yicha 165 nomdag'i o'quv fanlaridan 60 dan ziyod pedagoglar dars beradi. Bu kamida 165 ta fan modullari va fanlar integratsiyasini ta'minlash asosida shunga karrali bo'lgan ilmiy tadqiqot olib borish mumkin, degani. Respublika OTMlarning o'rtacha ilmiy salohiyati 40 % dan oshmaydi. Endi hisoblang, respublikamizdagi OTMlarda qancha ilmiy darajasi bo'lmagan pedagoglar faoliyat yuritadi, bu songa umumata'limga maktablarida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan o'qituvchilarni qo'shsangiz, "yuzlab" himoyalari juda kichik foizni tashkil qiladi. Menimcha, ilmiy-tadqiqotchilarga berilayotgan erkinlik ularning soniga qarab cheklanmasligi kerak, ishning sifatni oshirishga bo'lgan yondashuvlarini har doim qo'llab-quvvatlaymiz.

Ustozlik va homiylik haqida ham to'xtalsangiz. O'z sohasini yanada taraqqiy ettira oladigan nodir iste'dod egalari — yoshlardan kimlarni aytu olasiz? Ishonchingizni oqlay olmagan shogirdlaringiz ham bo'lganmi?

— Ustozlik va homiylik mantiqli savol. Kimgadir homiy bo'lishni o'zingiz tanlashingiz mumkin, lekin ustoz maqomini o'zingiz belgilay olmaysiz. Falsafamga ko'ra, ustozlik degani beg'araz yordam berish, shogirdlariiga ber-gan ilmiga minnat va ta'ma qilmaslik, tig'iz vaqtida ham ularga ko'mak berishdagi psixologik barqarorlik, o'zining nochor holatida ham yoshlarga ko'mak bera olishdir.

Yoshlarga ta'limga berishni xohlaydigan, ammo bu vazifani uddalay olmasligi uchun unga homiylik qilishni istagan insonni ustoz sifatida qabul qilgan bo'lardim. Albatta, Abdulla Avloniy aytib o'tganidek, "ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlarini qiyagan, zamondan xabarsiz otalar" ham yo'q emas. Agar ustozlik va homiylik uyg'unlashsa, samarasi eng yuqori bo'lishi shubhasiz. Masalan, mening birinchi ustozim otam(boshlang'ich sinfda o'qitgan). Butun umri davomida homiylik qilgan inson ham aynan u kishi. To'g'ri, onalar kurs ishlari, diplom himoya-si, dissertatsiyalarda, umuman hech qayerda rahbar sifatida qayd etilmaydigan aziz ustoz bo'ladi(xuddi mening 11 farzandni voyaga yetkazgan qahramon onam kabi).

Yoshlarning o'z imkoniyatlarini kengroq namoyon qilishi va xalqqa, davlatga ko'proq naf keltirishi bilan bog'liq qanday muammolar bor? Ularning ye-chimlariga ham to'xtalsangiz.

— O'z imkoniyatlarini kengroq namoyon qilishi yoshlarning nazdida iqtisodiy beqarorlik sharoitidagi qiyinchiliklar, kattalarning ulardagi tashabbuslarni cheklashi,



jiddiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga imkoniyat bermasligi, umuman ularni boshqalarning tushunmasligidir.

Ularning fikriga ham qandaydir ma'noda qo'shilish mumkin. Oliy ta'limga misolida qaraydigan bo'lsak, talabalarining emotsiyal-pixiologik barqaror emasligi, ruhiy tushkunlik kayfiyati ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, ikkinchi tomoni, fan-texnika taraqqiyoti insoniyatning mushkullarini qancha yengillashtirsa, shu darajada boshqa muammolarga yaqinlashtiradi. Misol uchun, sog'liqqa kamharakatlik, noekologik mahsulotlar, kuchli to'lqinlardan radiatsiyalish kabi salbiy ta'sirlar kuzatilsa, sun'iy intellekt elementlarining tobora ommalashib borishi yoshlarda fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish kabi ijobjiy xislatlarning susayishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, sifatlari ta'limga olish imkoniyatini ta'minlashda ijtimoiy talablar, ya'ni mehnat bozori ehtiyojlariiga javob beradigan zamonaviy ta'limga dasturlarini joriy etish zarur. Chunki OTMni davlat ta'limga standarti(DTS) asosida tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalar asosida bitirishadi(3 yoki 4 yil). Bu vaqt oralig'ida rivojlanayotgan jamiyat boshqa kadrlarga ehtiyoj sezishi tabiiy hol. Demak, DTS bir tomonidan bitiruvchilarga qo'yilgan minimal talab asosida sifatni kafolatlasa, ikkinchi tomonidan, ta'limga muassasalarining berilgan talabdan chetga chiqishiga imkon bermaslik, tez o'zgaruvchi va tez moslashuvchan mobil mutaxassis bo'lish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa, OTMlarda ijodiy muhit shakllanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Mayjud muammolarni butunlay bartaraf etib bo'lmaydi, sababi ta'limga jarayoni dogma emas. Har qanday o'zgarish, rivojlanish esa, albattra, o'zining muammolari va yangicha yondashuvlari bilan hamohang bo'ladi. Bugungi kunda bunday zamonaviy yondashuvlar qatoriga pedagogik ta'limga innovatsion klasterining ta'minlanishi, ya'ni ta'limga oluvchiga rag'bat va mablag' beruvchilar, bilim olish uchun sharoit yaratuvchi va nazorat qiluvchi mutasaddilarning manfaatlari hamkorligini ta'minlash zarur. Sababi, bugungi yoshlarga bilim berish va turli ta'sirlardan himoya qilishga faqat ta'limga muassasasini javobgar qilish to'g'ri emas.

Talabalariga berilgan nazariy bilimlar tezda amaliyot bilan mustahkamlanmasa, uning o'rmini ijtimoiy tarmoqlardagi yengil-yelpi ma'lumotlar egallaydi. Talabalarini amaliy-kasbiy faoliyatga yo'naltiradigan "Pedagogik desantura" akademik-ijtimoiy loyihasi, "Ochiq osmon ostidagi maktab" mobil ijtimoiy loyihasi, "Chegarasiz imkoniyatlar" motivatsion loyihasi, "Profi arena" kasbiy-amaliy loyihasi, "Bugundan pedagog", "Ovozsiz dunyo" va "SMART sensorika" kabi metodik loyihalarni keltirish mumkin.

Davlat va jamiyatga ko'proq naf keltiradigan, ta'limga oluvchilarning vaqtini va naqdini tejaydigan, bevosita nazariyaning amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlaydigan yondashuvlardan biri "Aralash ta'limga"dir. Aralash ta'limga tamoyillari va mexanizmlarini tadqiq etish bo'yicha universitetning 2-oliy ta'limga yo'naliishi talabalarida olib berilayotgan tajriba-sinov ijobjiy natija bermoqda. Bundan uzuksiz ta'limga innovatsion pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etish, xususan, talabalarining bo'shliqlarini diagnostika qilish va bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur, degan xulosa chiqadi.

G'iyos O'NAR suhbatlashdi.